

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

ZULHAYO MINGBOYEVA

ISTAK

She'rlar



TOSHKENT
“ADABIYOT”
2024

Badiiy rahbar:
Sirojiddin SAYYID

Mas'ul muharrir:
Botir ERGASHEV

Nashr uchun mas'ul:
Ma'mura ZOHIDOVA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'ana-
viy tarzda o'tkazilib kelinayotgan Respublika yosh ijorkor-
larining Zomin seminarida 2024-yildan boshlab mamlaka-
timizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan ijod mak-
tablari o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Atoqli adiblar
nomi bilan atalib, ta'lim jarayonida tilimiz va milliy adabiyo-
timizni chuqur o'rganishga, badiiy ijodga alohida ahamiyat
berilayotgan mazkur o'quv dargohlaridan badiiy ijod bilan
shug'ullanayotgan ko'plab yoshlar yetishib chiqmoqda.

Ijod maktablarining eng iste'dodli o'quvchilari ijodi kitob
holida chop etilib, Siz adabiyot muxlislari hukmiga havola
etilmoqda. Ulardan biri **Halima Xudoyberdiyeva nomidagi
ijod maktabi** o'quvchisi **Zulhayo Mingboyeva**dir. Muallif
hali yosh. Uning yozganlarida ma'lum kamchiliklar bo'lishi ta-
biy. Lekin unda o'qish, o'rganish, izlanish, o'zini ijodiy jihat-
dan yuksaltira borish imkoniyati bor. Bu uning o'ziga bog'liq.

Kitob orqali yosh muallifning ko'ngil bitiklarini o'qib,
uning ijod bulog'idan bahramand bo'lishingiz mumkin.

ISBN 978-9910-9372-7-9

© Z. Mingboyeva, 2024
© "Adabiyot", 2024

* * *

Ba'zida bardoshim yetmay qolar deb,
 Hayotimni chetdan kuzatganim bor.
 Yo gunoh zanjirin ming qayta o'rab,
 Uyalmay qalbimni uzatganim bor.

Libosi za'faron, oqsoq ruh bilan
 Ketyapman. Hamrohim hatto yil, oylar.
 Dunyo rangsizlatgan bedor nigohlar,
 Nafs kishan solmoq-chun qulay payt poylar.

To'kilib boraman so'ng manzilgacha,
 Tilimda muhabbat oyati takror.
 Tasbehin qaytarar ko'zimda yoshim,
 Bir quchoq she'rlarim bunda gunohkor.

Bu yo'lda yutqiziq yarashar bizga...

* * *

Kulgichlardan rang oladi ufq,
Olmabargda xonqizi raqsi.
Qushchalarning dardi g'oradek,
Peshonada qoqilik ramzi.

Endi baxtdan gul otgan nihol,
Qaramoqdan qo'rqar tandirga.
Bellariga oq belbog' tortgan,
Terak bilan ulg'aydim birga.

Bor ekansan, g'oraman, gulman,
Endi unib chiqyotgan daraxt.
Va qo'rqmayman qashqirlar ichra,
Yuragimga tugib bir musht ahd.

Bor ekansan, g'oraman, gulman...

* * *

“Siz kutasiz, men ham boraman”¹,
Va kutmoqdan go‘zali ham yo‘q.
Ko‘zimda ishq, shundayin ishqki,
Oxiri ham, avvali ham yo‘q...

Qaydan bu g‘am, qaydan mahzunlik?
Nahot umrim shunga boy berdim?
Baxtli ko‘rmoq edi tilagim,
Dilingizdan dardga joy berdim.

Ming qoqilib, ming azob chekib,
To sizgacha xor, bechoraman.
Manzilimiz noaniq, ammo
“Siz kutasiz, men ham boraman”.

¹ Halima Xudoyberdiyeva satri.

* * *

Oymomoga alla aytgan qiz,
Dog'dor yuzin artib qaytgan qiz,
Yuragida baxtkulchadan iz,
Bo'yi sendan oshibdi, aya.

Tilim qisiq kuylashga dardni,
Qiyin ekan bajarmoq shartni,
Nigohingga in qurgan gardni,
Pufpuflashga kuchim yo'q, aya.

Kino edi bizga yoshliging,
O'rnak bo'ldi xo'p bardoshliging,
Tomoshabin bag'ritoshliging,
Umr asli sahnadir, aya.

Ishqso'z tersam etak-etaklab,
Baxtlar ketdi meni kaltaklab,
Majruh ruhim kelsam yetaklab,
Dunyo o'zi bemor-ku, aya.

* * *

Bir kuni bexosdan ko'rishib qolsak,
 Quvvatsiz nigohlar nurga to'larmi?
 Xayolga sig'magan bahaybat bu baxt,
 So'roqsiz umringa kirib kelarmi?

Yo'q, hatto o'ylashga hayiqadi dil,
 Va g'urur jallodi bo'lmoqqa tayyor.
 Tasodif – taqdirdan go'zal nishona,
 Tasodif – bo'g'zingda ungan alafzor.

Bulutlar ko'zyoshin yashirolmas, ha,
 Qorasoch tunlarning ko'ksida xanjar.
 Etakka siqquncha gul-chechak terib,
 Yo'l olsam, kutganim bo'lmasmikan jar?

Sen buni tasodif ataysan qanday?..

ISTAK

Kulgichi bor qarashlar
Yig'latib ketdi nogoh.
Uvoli tutmasaydi,
Ishq azon qilsa ogoh.

Sen tong uchun yashaysan,
Tunlar bilan ishing yo'q.
Baxtkulcha yopib ketdi,
Yuragimga qalab cho'g'.

Yo'q senda shirin tashvish
Va ushalmas tilaklar.
Shundan balki za'faron
Xastalanmish kuzaklar.

Oydin subhlar tilayman,
Manziling bo'lsin porloq.
Istagim: behalovat
Nigohlar bo'lsin hamroh.

BIR DARAXT TILIDA

Tugʻilganda edim baxtiyor,
Otam, onam yonimda edi.
Koʻrmagandim hali hech zavol,
Hayot ishq qonimda edi.

Odamlarni yaxshi koʻrardim,
Oilamdan ayirmaguncha.
Doim yashnab, kulib turardim,
Tik qaddimni qayirmaguncha.

Tabiatni poklamoq uchun
Kurashgandim. Ketdi behuda.
Hayratdaman! Boshimdan judo
Qilgan qallob uxlar osuda.

Men-ku yutib yashayverardim,
Nafsga toʻlgan nafas dudini.
Lekin odam qanday yashaydi,
Loyga qorib pok vujudini?

Men ham oʻlim yoqasidagi
Kuygan tomir, tirik murdaman.
Erta-indin qay bir nokasning
Tandirida burda-burdaman.

Tugʻilganda yashil edim men,
Yaxshilikni bilmas koʻr ekan.
Oʻlmasimdan oldin tortishdi,
Tirik jonimga kulrang kafan.

AYAMGA

Ayam bizga ertak aytmagandi hech,
Qo'g'irchoq o'ynamay uzaydi bo'yim.
O'n bir yetim farzand va buvim haqda,
Eshitib rang oldi yildan yil bo'yim.

Dugona qizlarni jam qilib bir kun,
"Xola-xola" o'yin o'ynadik to kech.
Men yetim rolini ijro etardim,
Yodimdan chiqmaydi hozirgiday hech.

Ayam ko'rib qoldi – qo'lda tayog'i,
Hammani uyiga haydadi shartta.
Va birdan quchoqlab yig'lab yubordi:
"Bu holingni ko'rmay ikkinchi marta".

Menga hayot berdi qalam, oq qog'oz,
Tutqazib qo'ymadi ketmon sopiga.
O'zim o'xshamadim ayamga, biroq
O'xshadim orzusin chin ro'yobiga!..

OTA

Tugʻilgan kun. Ha, yodimda hozirgiday,
Men xohlagan shokoladli, “5” sonli tort.
Qoʻngʻiroqsoch qizaloqning duolari,
Bu duoga farishtalar boʻlgani joʻr.

Ha, esimda, dadam juda kech kelgani,
Va haftaga moʻljallangan qari araz.
Ayam esa oʻrtamizda elchi boʻlib,
Qoʻlimizni tutib qilar yarash-yarash.

Men dadamning koʻzida hech koʻrmadim yosh,
Bagʻritoshmi deb oʻylardim hatto goho.
Necha yilki, kiprigida koʻtarib tosh,
Necha yilki, buyuk darddan etmas ogoh.

Aslida ham dadam juda qaysar edi,
Mashaqqatni faqat oʻzga koʻrdi ravo.
Shoʻxlik qilib kesib olsam barmogʻimni,
Dadam bitta oʻpib qoʻysa edi davo.

Darhaqiqat, qizgʻanchiq ham edi juda,
Anglayapman, yuragimga kirarkan qut.
Hech boʻlmagan qoʻlimizda koʻzmunchoqlar,
Duolardan kiydirgandi qalqon, sovut.

CHEKINISH

Oppoq oqshom...
 Kipriklarning uchrashuv vaqti
 Nigohlar moviyga bo'yalar
 Kalima aytib...
 To'rtoyoqlar – bekishan ulov
 Yer bag'rini qitiqlab ketar.
 Zamin ingrab boshin qo'yadi
 Darddan yag'ir yelkamga
 Dardin fosh eta.
 Men “dod” deb baqirsam,
 Sadolar
 Baxt deb qog'ozga chapladi.
 G'ijimlab oyoqqa bossam-u,
 Qontalash tovonni
 Chechaklar qopladi.
 Men sochimni jamalak desam,
 Huuv tollar ildizi chakalak emish.
 Cho'chimayman. Yurakni endi
 Bir dilxo'r yemish...
 Ruhimda bir siyrat rostlandi
 Necha bahordirkim o'zlikka qaytib.
 Nigohlar moviyga bo'yalar
 Kalima aytib...

* * *

Salom, xayollarining ko'ziga mil tortilganim,
Ro'molining bir uchida orzularin yukini ko'tarib
yurganim,

Ro'yolariga rang berganim,
Hayotga ko'z yumganim,
Taqdirga tiz cho'kkanim,
Kipriklari ostida toshqinlarni asraganim,
Ko'zgulari dog'dorim,
Shodligi yarashmaganim,
Oqshom sepkillarini yuziga to'kkanim,
Qadami atirgullar bilan mixlanganim,
Kulgichlariga chok tushganim,
Sarob umidlar bilan va'dalashganim,
Ko'rki o'zi uchun bo'lmaganim!
Hilol bulutlarga asir tushgan chog'
Kel.

Ko'kning bag'ri tars yorilgan chog'
Kel.

Samo dardini to'kkanda
Kel.

Kovushing yo'llarda iz qoldirmasin.
Tag'in na'farmon tus olishidan qo'rqasan
yanoqlaringning.
Erking muborak, erkinlik qulluq bo'lsin!

ERK SO‘ZI

Erkin Vohidovga bag‘ishlov

Zaminning kokili to‘zg‘igan,
Tonglarni alqaydi dil dalli.
Dunyoga o‘gaysan, dedilar,
So‘z aytmay istadim tajalli.

Menlikdan senlikka bir qadam,
Bir nuqta bizlikka guvohdir.
She‘riyat kaftida gurkirab,
O‘sayotgan bu erkdir, bu ohdir.

Nuqtaning ko‘rinmas oxiri,
Bor kuchim jimlikka asira.
Yonoqlar qontalash tus olar,
Ko‘zguga boqishdan xavfsirab.

Keksayib boradir dardlarim,
Ko‘ngilni suqqan yo‘l emas berk.
Yashadim tikilib qog‘ozga,
Qo‘llaring ko‘zimga yozdi Erk.

Qo‘llaring ko‘zimga yozdi Erk.

* * *

Bu shaharning qo'llarida musht,
Bu shaharning ko'zida nafrat.
Bunda seni ko'rib bo'lmas tush,
Bunda senga yozib bo'lmas xat.

Har narsaning chegarasi bor,
Har tomoning emasdir qibla.
Bunda bobong sen uchun asrab,
Turshak tutmas qish chog'i imlab.

Do'stim, uning jodu, sehri bor,
Hatto tonglar tunda otadi.
Kaftda kuzak alahsib yotar,
Bahorlari erta qaytadi.

Sahar ketmon bongi uyg'otmas,
Kiprigingga qo'nmaydi qirov.
Yuragingga laxcha cho'g' otmas,
Tekin mehr bermaydi birov.

Bu shaharning qo'llarida musht,
Bu shaharning ko'zida nafrat...

MEN KEZAMAN...

Men kezaman bu oqshomni oqqa bo'yab,
Qulog'imga zirak qilib yulduzlarni.
Samolarga uzalgancha bo'yim bo'ylab,
Artib keldim oyning dog'li yuzlarini.

Qo'llarimda yo'rgaklangan bir to'da his,
Ingranadi qaytmoq uchun hujrasiga.
Daraxtlarga bosh eggancha cho'kdim-u tiz,
Yozib qo'ydim har yaproqqa bir qasida.

Oyog'imni kishanlaydi har bir qadam,
Tovonimga bosh suqadi chaqir toshlar.
Shamollarning tarsakisi qaqshatar tan,
Yurak meni qay yerlarga keldi boshlab.

Ovozlarim yetgunicha baqirsam-u,
Boshi osmon tog'laridan kelmas sado.
Bulutlarni ketar chog'i chaqirsam-u,
Mening uchun tarnovlardan tomdi zardob.

Men kezaman bu oqshomni oqqa bo'yab...

* * *

Sentyabr kaftida sarg'ayar borliq,
To'kilib borajak samo hamda so'z.
Sillamni quritar isyon, she'rsizlik,
Yer bag'rin yo'rgaklab, yonboshlaydi kuz.

Oymomo tilidan ertak eshitib,
Ertaklar so'ylangan qaro kechalar.
Teskari tebranib ochun beshigi –
Kunduzsiz oqshomlar aro kechalar.

Yurakni qiymalab tashlar sukunat,
Dillardan mahrumdir shabboda hislar.
Rangsiz tushlar ichra tentiramas qalb,
Ufursa ko'ngildan gar nazmiy islar.

DAHSHATLI RO‘YO

Gul ochgan har narsa bog‘ emas ekan,
Gullagan kulni-da sepdi ko‘zimga.
Daʼatan o‘zgardi borliqning rangi,
Ko‘ngildan qoraxat terib izimga.

Xoxolab ustimdan kular kimlardir,
Tilim kishanlangan, kelmas xo‘rligim.
Menga alam qilar faqat birgina,
Kulganlar ichida o‘zim borligim.

O‘ZIMGA

Men ancha charchadim.
Dunyoning bag‘riga sig‘mayin ketdim-o!
O‘zimni hadya et, Xudoyim!
Haddimning so‘ngiga yetdim-o!

She‘r dedim, tillarim kishanband,
Sen dedim, ilohiy tandaman.
Umruga kimo‘zar o‘ynabon,
Soyamga yutqazgan bandaman.

* * *

Bir juft qora kovush, bir juft oq tufli...
Tumshug'i yer o'pib, turar yonma-yon.
Men esa bobomning kaftlaridagi
Ajinlar soniga yeta olmayman.

Mana, ketmon sopi qoldirgan izlar,
Mana, dalamizday yam-yashil tomir.
Shunda shuurimda qad rostlar hayrat,
Dehqon bo'lgan asli nahot ona Yer?!

Adashdim sanoqdan bu gal ham, hayot,
G'ayratim, shiddatim chetga tisladi.
Asrlar qaritmas dardlar qoshida
Oqargan sochlardan qora izladim.

Bir juft qora kovush, bir juft oq tufli...

* * *

Bo'g'zimni changallab turgan ne edi?
Alvido demoqqa salomingmi, ayt?
Sog'inchdan qaqragan nigohlar haqqi,
Ket oydin qaroqlar tutmasidan may!

Ket!
Sababsiz, inkorsiz va kulgi bilan,
Qo'l silta o'tmishga, xayr, de faqat.
"Ko'rishguncha"lardan bezigan yurak,
Ko'rishguncha ham to bitmishdir toqat.

Sen o'zi kim eding ro'yolarimdan,
Ruhing choklarini hech so'tolmagan.
Axir Seni sarob deb atamoq mushkul,
Chunki Sen Men eding men yetolmagan.

Ket!
Oydin qaroqlar tutmasidan may...

* * *

Mendan soʻz soʻramang, men qulman axir,
 Uvushgan yurakka torting tarsaki.
 Tilimni yamlamay yutmoqqa tayyor
 Boʻgʻzimni changallab turgan tomogʻim.

Mendan soʻz soʻramang, men qulman axir,
 Tanglayimda soʻzlar ketsa-da gullab.
 Shunchalar gʻalati koʻrinarmikan
 Qafasda erkini anglagan qushcha?

Mendan soʻz soʻramang, men qulman axir,
 Tomiri kurtaklab, qaddi bukilgan.

* * *

Tonglarga dodlaydi namiqqan diydor,
Chak-chak... chakki otib ketdi sukunat!
Gullamoqchi bo'lar, unmoqchi bo'lar,
Gullarning yaprog'i ostidagi baxt!

Borliqning jariga solmasdan quloq,
Ishqnoma yo'llayman yomg'ir tilida.
Endi sendan javob kutmayman, yo'q-yo'q,
Endi urar yurak Olloh yo'lida!

Chak-chak...

Chakki otib ketdi sukunat...

ENG EZGU TILAK

Ha, ko'zlaring moviy rang edi,
Ha moviy rang xuddi falakdek.
Yuzi do'li dunyoni poklab,
Yuvmoq uchun joni halakdek.

Bezillaysan qoliplangan ishq,
Kafan tortgan ko'ngillar hurkak.
Kulrang yurak, qizil galstuk –
Ommalashgan po'stin muborak.

Hayratlarda suzadi dunyo,
Senga siyqa tuyular sehr,
Va kitoblar tilida qolgan,
Ertaklarda yashovchi sehr.

Sevgi nima? Muhabbat nima?
Har nigohga tushayotgan cho'k?
Ildizi yo'q guldor daraxtday
Ko'zlaringda barg otajak ko'k.

Ha, ko'zlaring moviyrang edi,
Ha, moviyrang xuddiki falak.
To bu rangsiz yuraklararo,
Tilagayman yam-yashil yurak.

ILTIMOSNOMA

Ey tunlari sekilli malak,
Nafs yellari etmasin asir.
Pok vijdonni gulbargga o'rab,
Asrab qo'ying, qolmasdan basir.

* * *

Manzil uzoq, bir O'zing yaqin,
Sog'inch Sendan eng og'ir jazo.
Aytilmagan so'zlar gunohkor
Va tilimda izhorlar qazo.

* * *

Moviy edi koʻzlaring u payt,
Bulutlari aza ochmagan.
Koʻzmaysani suvsiz qoldirib
Qaroqlari mendan qochmagan.

MUNDARIJA

“Ba’zida bardoshim yetmay qolar deb...”	3
“Kulgichlardan rang oladi ufq...”	4
“Siz kutasiz, men ham boraman...”	5
“Oymomoga alla aytgan qiz...”	6
“Bir kuni bexosdan ko’rishib qolsak...”	7
Istak.....	8
Bir daraxt tilida	9
Ayamga	11
Ota	12
Chekinish	13
“Salom...”	14
Erk so’zi	15
“Bu shaharning qo’llarida musht...”	16
Men kezaman... ..	17
“Sentyabr kaftida sarg’ayar borliq...”	18
Dahshatli ro’yo	19
O’zimga	20
“Bir juft qora kovush, bir juft oq tufli...”	21
“Bo’g’zimni changallab turgan ne edi?...”	22

“Mendan soʻz soʻramang, men qulman axir...”	23
“Tonglarga dodlaydi namiqqan diydor...”	24
Eng ezgu tilak	25
Iltilmosnoma	26
“Manzil uzoq...”	27
“Moviy edi koʻzlaring u payt...”	28

Adabiy-badiiy nashr
ZULHAYO MINGBOYEVA

ISTAK

She'rlar

Muharrir: *M. Nurmetova*
Badiiy muharrir: *A. Umarova*
Sahifalovchi: *A. Qayimov*
Musahhih: *I. Isamuhammedova*

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3 (50'zb)

M 43

M 43 Mingboyeva, Zulhayo

Istak [matn]: *she'rlar / Zulhayo Mingboyeva.*

– Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2024. – 32 b.

ISBN 978-9910-9372-7-9

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
“ADABIYOT NASHRIYOTI” MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

Тел: (98) 128-30-04.

Bosishga 20.08.2024-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi 500 nusxa.



“MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.